



“SALOTI MAS’UDIY” ASARINING BOBLARGA KO’RA TASNIFI

Usmanova Xulkar Mamatovna

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0003-3726-0332>

email: teacher8282@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13766668>

ANNOTATSIYA

Mas’ud Samarqandiyning (XIII asr oxiri va XIV asr boshlari) “Saloti Mas’udiy” asari boshida keltirilgan aqida risolasi musulmonlarga o‘z e’tiqodlarini mustahkamlashga yordam bersa, fiqhiy qismi esa ibodatlar, xulqlari va hayot tarzlarini chiroyli qilib qurishlariga ko‘mak beradi. Shuningdek, ularning diniy-huquqiy sohadagi ko‘plab savollariga yetarlicha, asosli javob beradi. Mazkur maqolada asarning boblarga ko‘ra mavzulari yoritib berilgan.

АННОТАЦИЯ

Произведение Масуда Самарканди (конец 13 - начало 14 века) «Салоти Масуди» об акыде, упомянутый в начале произведения, помогает мусульманам укрепить свою веру, а юриспруденционная часть помогает им выстроить свое богослужение, поведение и образ жизни красиво. Он также дает достаточные и разумные ответы на многие их вопросы в религиозной и правовой сфере. В данной статье описаны темы работы по главам.

SUMMARY


Mas'ud Samarqandi's (end of 13th and beginning of 14th century) "Saloti Mas'udi" treatise on aqeedah mentioned at the beginning of the work helps Muslims to strengthen their faith, and the jurisprudential part helps them to build their worship, behavior and way of life beautifully. It also provides sufficient, reasonable answers to many of their questions in the religious and legal field. This article describes the themes of the work according to the chapters.

KALIT SO‘ZLAR

Aqida, fiqh, bob, jild, mavzu, ibodat, muoamalot (fuqarolik huquqi), Mas’ud Samarqandiy, “Saloti Mas’udiy” asari, huquqiy masalalar

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Акида, юриспруденция, глава, том, тема, поклонение, обращение (гражданское право), Масуд Самарканди, «Салоти Масуди», юридические вопросы





KEY WORDS

Aqidah, jurisprudence, chapter, volume, topic, worship, treatment (civil law), Mas'ud Samarkandi, "Saloti Mas'udi", legal issues

Mas'ud ibn Mahmud ibn Yusuf Samarqandiyning "Saloti Mas'udiy" asari XIII-XIV asrlardan buyon xalqimiz qadrlab kelayotgan qimmatli va mo'tabar asarlardan biridir. Mazkur asar dastlab 83 bobdan iborat[1] bo'lib, keyinroq u fihiy ma'lumotlar bilan to'ldirilib, 3 ta bo'limga-jildga ajratilgan[2].

Mas'ud Samarqandiy o'z davri an'anasiga ko'ra fihiy masalalarni quyidagi qismlarga ajratib bayon etadi:

1. Ibodat masalalari;
2. Muomalot (fuqarolik huquqi) masalalari.

Birinchi qismdagi masalalar asosan toat-ibodat mavzulari, ya'ni Alloh bilan banda o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. An'anaviy fiqh kitoblari tahorat bobidan boshlansa, ulardan farqli ravishda, "Saloti Mas'udiy" kitobi namoz bobidan boshlangan.

I. Ibodat qismiga asardagi 5ta mavzu tanlab olindi.

1. Islom dinining asosiy ruknlariga oid ibodat masalalari:

Namoz kitobi – كتاب الصلاة

Poklanish kitobi – كتاب الطهارة

Zakot kitobi – كتاب الزكاة

Ro'za kitobi – كتاب الصوم

Haj kitobi – كتاب الحج

Ikkinchi qismda esa banda bilan banda, ya'ni insonlar o'rtasidagi muomalot munosabatlari shar'iy hukmlar asosida bayon etiladi. Bu qism 3 xil masala va 18 ta mavzularga ajratilgan.

II. Muomalot qismi:

2. Maishiy masalalar:

Nikoh kitobi – كتاب النكاح

Emizish kitobi – كتاب الرضاع

Taloq kitobi – كتاب الطلاق

Ozod qilmoq kitobi – كتاب العتاق


Qasamlar kitobi – كتاب الأيمان

3. Iqtisodiy va moliyaviy masalalar:

Savdo va ribo kitobi – كتاب البيوع و الربوا

Garov kitobi – كتاب الرهن

Tasarruf qilishdan man qilish – كتاب الحجر





Tekinga olish kitobi - كتاب العارية
Omonat kitobi - كتاب الوديعة
Ijara kitobi - كتاب الإيجارات
Qurbonliklar kitobi - كتاب لأضحية
Sheriklik va muzoraba kitobi - كتاب الشركة و المضاربة

4. Huquqiy masalalar:

Jazolar kitobi - كتاب الهدود
O'g'irlik kitobi - كتاب السرقة
(Majburlab) tortib olish kitobi - كتاب الغصب
Guvohlik kitobi - كتاب الشهادة
Kafil bo'lish va havola qilish - كتاب الكفالة و الحوالة

Asardagi katta mavzular nafaqat kitob sifatida balki boblar va fasllarga ham bo'lingan holda batafsil yoritib berilgan. Shuning uchun ham katta hajmga ega. Ahamiyatlisi shundaki, 3 ta jildning aksariyati, ya'ni 2 ta jildi - ibodat qismining namoz hamda tahorat masalalarini qamrab oladi. Uchinchi jildan boshlab ibodat qismining qolgan masalalari - zakot, ro'za, haj, qurbonlik mavzulari bilan davom ettirilib, shundan so'ng muomalot qismining maishiy, iqtisodiy-moliyaviy va huquqiy masalalari batafsil yoritib beriladi.

Ibodat masalalari asarning 3/2 qismini, asar hajmining 67 % ini tashkil etadi[3]. Bu esa Movarounnahrda mo'g'ullar istibdodi davrida ibodat masalalariga, ayniqsa, namozga qanchalik e'tibor berilganini ko'rsatadi. Boshqa fiqhiy asarlar tahorat va poklik mavzusidan boshlangan bo'lsa, muallif namozga urg'u berib, asarini "Solati Mas'udiy" deb nomlagan. Kitobning "Saloti Mas'udiy" deb nomlanishiga sabab "Namozdan ibtido qilib, bul kitob saloti Mas'udiyg'a shuru' qilindi" [4].

Asarda nafaqat hanafiylik fiqhiga, balki moturidiylik ta'limotiga ham ahamiyat berilgan. Zero, Mas'ud Samarqandiyning ijodiy faoliyati aynan mo'g'ullar istilosidan keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda mo'taziliy, qadariy, jabariy, qarmatliy kabi turli oqim vakillarining ta'siri kuchaygan edi. Shuning uchun muallif furu'ul-fiqh (juz'iy masalalar)ga kirishishdan oldin musulmonlarning e'tiqodlarini to'g'rilash uchun ahli sunnat val-jamoat aqidining asoslarini ham bayon etadi[2].

Ikkinchi jildda ibodat qismining mash, tayammum, joyni pok tutish, makruh makonlar, satri avrat, kiyimni pok tutish, namoz vaqtlarini bilish, qibla, niyat, qiroat, sajda va ruku' qilish, qa'da, vitr namozi, azon, jamoat fazilati, imomlik, saj dai sahv, nafl namozlar, saj dai tilovat, musofirlar namozi, jum'a namozi, taroveh namozi, ikki hayit namozlari, ayollarga imomlik qilish, bemor





odamning namozi, murdalarni yuvish, kafanlash, janoza namozi o'qish, sajdalar kabi masalalar batafsil yoritib berilgan.

Uchinchi jildda huquqiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan juz'iyotlar: amaliy ibodatlar - zakot, ro'za, haj mavzularidanso'ng muomalot qismining maishiy, iqtisodiy-moliyaviy va huquqiy masalalari beriladi. U asar hajmining 3/1 qismini, ya'ni 33 % ini tashkil etadi.

Dastlab, amaliy ibodatlarga tegishli mavzular quyilagi bob va fasllarga bo'lib yoritib berilgan: tuyadan, qoramoldan, qo'ydan zakot berish; kimlarga zakot berish afzal; otga zakot vojibligi; ro'zadorning turlari; ro'zani buzadigan narsalar; nafl ro'za; nazr ro'zasi; zihor kafforati.

2-jildning davomida muomalot qismining maishiy masalalariga tegishli oila huquqi - nikoh, razo', taloq, idda mavzulariga e'tibor beriladi. Ular ham bob va fasllarga bo'lib yoritib beriladi. Jumladan, nikoh lafzlari; valiyar; fosid nikohlar; nikohda shubha; emizish; taloqning turlari; fosid nikoh iddasi kabi bob va fasllarga bo'lingan. Bu masalalar asar hajmining 12,6 % ini qamrab oladi.

"Aytish mumkinki, X asrlarda asosiy e'tibor iqtisodiy-moliyaviy, tijoriy masalalarga qaratilgan, XI-XII asrlarga kelib tijoriy masala hali ham e'tiborda bo'lgan, lekin maishiy masalalar birinchi o'ringa ko'tarilgan" [5]. "Saloti Mas'udiy"da ham shu tartibda berilgan. Bunga sabab o'sha davrda turli maishiy muammolarning yuzaga chiqa boshlagani va ularning oldini olishga katta e'tibor berilgani, deb xulosa qilish mumkin.

Asarda maishiy masalalardan so'ng iqtisodiy-moliyaviy masalalar - oldi-sotdi, ribo, garov, tasarruf qilishdan man qilish, tekinga olish, omonat, ijara, vaqf, qurbonlik, sheriklik va muzoraba kabi masalalar batafsil yoritib berilgan. U asar hajmining 13,6 % ini qamrab oladi.

Iqtisodiy-moliyaviy masalalardan keyin huquqiy masalalar asar umumiy hajmining 6,8 % ini tashkil etadi. Unda hudud jazolari - Alloh tomonidan belgilangan jazolar, jinoyat turlari, o'g'irlik, sud, da'vo, guvohlik, qasos, sulh, jihod, vasiyat, meros va boshqa ko'plab fihiy mavzu va masalalarni o'z ichiga olgan.

Xulosa qilib aytganda, Mas'ud Samarqandiy o'z asarida fiqh ilmining barcha masalalarini atroflicha yoritib beradi. Biroq mo'g'ullar istibdodi davrida Movarounnahrda xalq ibodat masalalariga sustkashlik qilgani uchun, turli firqalar o'rtasida ixtiloflar mavjudligi sababli muallif o'zining asarini ko'proq ibodat masalalariga bag'ishlab hanafiy mazhabida yozgan. Shuning uchun ham omma orasida xalqchil asar sifatida ommabop bo'lgan. Hanafiy mazhabi fiqhini





o'rganishda hamda bu mazhabni boshqa mazhablardan eng ravon tarzda farqlab ochib berishda "Saloti Mas'udiy" asarining ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mas'ud as-Samarqandiy. Saloti Mas'udiy. O'zR FASHI № 4041. 1333 y. Samarqand shahrida kotib Nosir ibn Muhammad ibn Umar al-Kirmoniy al-G'aznaviy tomonidan suls xatida ko'chirilgan. 244 v. Qo'lyozma jildlarga bo'linmagan.
2. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi inv. № 2639. - Hijriy 1061 (m. 1650-1651) yil ko'chirilgan.
3. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi. R: 8338. Asarning umumiy hajmi 524 bet.
4. Mas'ud Samarqandiy. Saloti Mas'udiyi turkiy. O'zR FASHI. № 10401. 1910.-B. 12.
5. Kamilov M. B. Movarounnahr fiqh ilmi rivojida Alouddin as-Samarqandiyning o'rni va "Tuhfat al-fuqaho" asarining ahamiyati". Tar. fan. nom... dissertatsiya.- Toshkent, 2000. B. 116

